



## MAKTABDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI

*Muallif: Rejabova Maxliyoxon Maxammadjonovna*

*Lavozimi: Andijon viloyati Izboskan tumani 51-maktab psixologi*

### Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab psixologik xizmatining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'рни, o'quvchilarning ruhiy salomatligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda psixologning asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikning samarali jihatlari tahlil qilingan.

### Kalit so'zlar

psixologik xizmat, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, ruhiy salomatlik, psixolog, hamkorlik, rivojlanish.

### Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlarning o'рни alohida ahamiyatga ega. Maktab psixologik xizmati o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va ruhiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

### Asosiy qism

Maktab psixologining faoliyati o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, shuningdek, uchrayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. O'quvchilarda uchraydigan xavotir, stress, o'ziga ishonchsizlik, muloqotdagi qiyinchiliklar va boshqa psixologik holatlarni



aniqlash hamda ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatish psixologning muhim vazifalaridan biridir.

Psixologik xizmatning samaradorligi o'qituvchi, ota-ona va psixolog hamkorligiga bog'liq. Ota-onalarga bolalarning yosh xususiyatlari, tarbiyadagi muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida maslahatlar beriladi. Pedagoglarga esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish maqsadida turli treninglar, davra suhbatlari, profilaktik tadbirlar va psixologik aksiyalar tashkil etiladi. Bunday tadbirlar o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlar tarbiyasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Shu sababli psixologlar tomonidan internet madaniyati, axborot xavfsizligi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktab psixologik xizmati o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashuvchi muhim tizim hisoblanadi. Psixolog, pedagog va ota-onalarning hamkorligi ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari.



Umumiy o'рта ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatiga oid metodik tavsiyalar.

G'oziev E.G'. "Umumiy psixologiya".

Davletshin M.G. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya".